



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi
Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

31.03. 2026.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.
Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD). dots.
Toshqulov A.H. – i.f.d, prof.
Absamatov A.E. – i.f.d., dots.
Ruzmetov B. – i.f.d. prof.
Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.
Ro'ziyev O.A. – i.f.n., dots.
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.
Shodiyev A.A. – i.f.d., dots.
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.
Qodirov U.D. – p.f.d., prof.
Turopova S.K. – f.f.d., dots.
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots
Yarmatov Sh.CH. – i.f.f.d (PhD).
Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).
Absamatov As.E. – i.f.f.d (PhD)
Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).
Xoliyorov E.Ch. – f-m.f.n., dots.
Esanov A.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xudoyberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD)
Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD), dots v.b.
Xayrullayev I.N. – f-m.f.n., dots.
Bozorov S.B. – f.f.f.d. (PhD)
Sattarova Y.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD), dots.
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Yormatov F. J. – t.f.n., dots.
Xoshimxo'jayeva M. –f.f.f.d. (PhD), dots.
Ismoilov B.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Salomov G'. Y. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Uralova O. P. – f.f.d (DSc), dots.
Xolov O.Ch. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Usmonov M. Q. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Abdusamatov A.S. - p.f.f.d. (PhD). dots.
Norkulova Sh. T. – f.f.f.d. (PhD)
Shoturayev J. – p.f.f.d. (PhD).
Abduraxmanov A.Y. – t.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

N.A. ABDURAIMOVA, M.N. KARIMOVA

Tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirishni takomillashtirish asosida aholi bandligini ta'minlashning iqtisodiy tahlili.....5

N.A. ABDURAIMOVA, M.T. RO'ZIYEVA

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....10

G.A. AXMETOVA

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash omillari.....16

S.R. BOYPO'LATOV

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning roli.....21

M.SH. CHORIYEVA

Eksport salohiyatidan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish omillari.....26

N.X. DO'SMUXAMEDOVA

Nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillari.....32

B.A. ERDANAYEV

Hududiy rivojlanishda drayver tarmoqlarning o'рни va ularni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari37

N.N. ESHQULOVA, SH.B. ABDUNABIYEV

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi va xizmatlar eksporti dinamikasi tahlili.....42

M.X. KURBOSHEVA

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning nazariy-metodologik asoslari.....47

O.J. MURODOV, H.I. G'ULOMOV

Paxta tozalash korxonalarida moliyalashtirish-innovatsiya uzilishi: O'zbekiston agroklastarlari misolida empirik tahlil.....52

SH.S. MUZRAPOVA, N.S. MUZRAPOVA

Ekonometrika ta'limida interaktiv va amaliy matematika asosidagi yondashuvlarning samaradorligini baholash.....59

Z.M. NORALIYEVA

Qishloq joylarni rivojlantirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes samaradorligini oshirish yo'llari.....66

A.P. PARDAYEV

O'zbekiston bank tizimini strategik transformatsiya jarayonining tahlili.....74

J.R. SAYFIYEV

Agile transformatsiya jarayonidagi kutilayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.....77

A.A. SHODIYEV, B.A. SHODIYEV

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....82

B.E. TURAYEV

Iqtisodiy o'sish omillarini kobb-duglas modeli asosida ekonometrik baholash.....89

Z.I. XAKIMOV

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalash yo'nalishlari.....93

N.A. XAKIMOVA

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab - quvvatlashda subsidiya amaliyotini takomillashtirish.....98

SH.D. XAYDAROVA

Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.....103

L.L. XAYRULLAYEVA

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil iqtisodiyot yondashuvi va an'anaviy iqtisodiy model.....107

Y.Z. XUDAYAROVA

Asalarichilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni lasso regression modeli asosida tahlil qilish.....112

R.A. XURRAMOV

Hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini prody indeksi asosida statistik tahlil qilish.....116

G.A. YUSUPOV

Uzoq muddatli aktivlarda adaptiv amortizatsiya usuli.....122

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....126

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....134

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....137

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....140

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....144

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....147

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish150

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....153

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....157

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....160

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....164

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....169

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....173

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....176

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....180

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....187

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....190

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....194

G'A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....198

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....202

SH.T.YAKUBOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....205

N.B.RAUPOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....208

M.SH.BURIYEVA

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....213

Z.M.ALLAYEV

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....218

Z.F.ERGASHEVA, G'Y.SALOMOV

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....221

L.A.RAIMOV

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....225

A.A.QARAQULOV

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....229

N.A.UMAROVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....234

M.T.MENGNAROVA

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....238

I.B.JURAEV

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....242

D.A.BADALOV

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....248

F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....252

M.O.BEGALIYEVA

Pattakesar.....257

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Moliya va turizm kafedrası o'qituvchisi
Xakimova Nasiba Abdurayimovna
E-mail: nasiba_xakimova@tues.uz

FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB -QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida subsidiya mexanizmlarining hozirgi amaliyoti, mavjud muammolar va ularni takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan. Subsidiya ajratishning institutsional asoslari, samaradorlik mezonlari hamda xalqaro tajribaga asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligida raqobatbardoshlikni oshirish, bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashgan davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: fermer xo'jaliklari, subsidiya, dotatsiya, subvensiya, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, moliyalashtirish, qishloq xo'jaligi, agroiqtisodiyot.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАКТИКИ СУБСИДИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ФЕРМЕРОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализированы современная практика применения механизмов субсидирования в системе финансовой поддержки фермерских хозяйств в Республике Узбекистан, существующие проблемы и пути их совершенствования. Исследованы институциональные основы предоставления субсидий, критерии эффективности, а также разработаны рекомендации, основанные на международном опыте. Результаты исследования направлены на повышение конкурентоспособности сельского хозяйства и формирование механизмов государственной поддержки, гармонично сочетающихся с рыночными инструментами.

Ключевые слова: фермерские хозяйства, субсидия, дотация, субвенция, финансовая поддержка, финансирование, сельское хозяйство, агроэкономика.

IMPROVING THE PRACTICE OF SUBSIDIZING FINANCIAL SUPPORT FOR FARMERS

ABSTRACT

This article analyzes the current practice of subsidy mechanisms within the system of financial support for farms in Uzbekistan, the existing challenges, and ways to improve them. The institutional foundations of subsidy allocation, efficiency criteria, and recommendations based on international experience are examined. The research findings aim to enhance the competitiveness of the agricultural sector and to develop state support mechanisms that are harmonized with market-based instruments.

Keywords: farms, subsidy, grant, subvention, financial support, financing, agriculture, agroeconomics.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi, eksport salohiyati va bandlik darajasida muhim o'rin tutadi. Fermer xo'jaliklari tarmoqning tayanch bo'g'ini sifatida ishlab chiqarish hajmi, mahsulot sifati va bozor talabiga mos taklif shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mavjud sharoitda fermer xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda subsidiya amaliyoti strategik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, subsidiya

ajratish jarayonida byurokratik tartiblarning murakkabligi, mezonlarning yetarlicha shaffof bo'lmasligi, resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi va monitoring tizimining sustligi kabi muammolar kuzatiladi. Shu bois, ushbu maqolada subsidiya amaliyotini iqtisodiy samaradorlik va bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish masalalari ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv asosida shakllantirildi. Avvalo, tizimli tahlil usuli qo'llanilib, fermer xo'jaliklarining moliyaviy

faoliyati va subsidiya mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi kompleks tarzda o'rganildi. Bu yondashuv iqtisodiy jarayonlarni alohida emas, balki bir butun tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Shuningdek, qiyosiy tahlil metodidan foydalanilib, rivojlangan davlatlar agrar subsidiyalash tajribasi O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirildi. Bu orqali mavjud farqlar, institutsional yondashuvlar va samaradorlik darajalari aniqlashga xizmat qildi. Empirik tahlil doirasida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, davlat byudjetidan ajratilgan subsidiya hajmlari hamda fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari asosida amaliy ma'lumotlar tahlil qilindi. Mazkur bosqichda real statistik va hujjatli asoslar tahlilning obyektivligini ta'minladi. Bundan tashqari, ekspert baholash usuli qo'llanilib, agrar soha amaliyotchilari hamda ilmiy doira vakillarining fikr-mulohazalari umumlashtirildi. Ushbu yondashuv natijalarni chuqurlashtirish va xulosalarning amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Jahon iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi sohasining barqaror rivojlanishi, aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, qishloq fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning faoliyatida mavjud moliyaviy xatarlarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jahon banki hisobotiga ko'ra "Jahon bankining qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi faol loyihalari 4,7 million fermer xo'jaliklarini takomillashtirilgan qishloq xo'jaligi texnologiyalarini o'zlashtirish, hosildorlik va mahsuldorlikni oshirishda qo'llab-quvvatladi [1]. So'nggi besh yil ichida Jahon banki qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun 22,3 milliard dollarni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish uchun yo'naltirdi. Jahon yalpi ichki mahsulotining 6,4 foizi qishloq xo'jaligi sektorida yaratilib, uning asosiy qismi Xitoy va AQSH mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. Xitoyda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning 18 foizi davlat tomonidan amalga oshirilsa, AQSH da bu ko'rsatkich 5 foizni tashkil etadi [2]. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash amaliyoti nisbatan ustuvorlikka

ega bo'lib, tarmoqni rivojlantirishni va ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqozo etmoqda. Xususan mamlakatimizda fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berilayotganligi keying yillarda yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi tobora ortib borayotganligini ko'rsatmoqda.

1-jadval

2005-2025 yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi bo'yicha ma'lumot¹ (%)

№	Ko'rsatkichlar	2005 yil	2010 yil	2015 yil	2020 yil	2025 yil
I	Barcha toifadagi xo'jaliklar	100	100	100	100	100
1	Fermer xo'jaliklari	24,3	36,3	30,7	29,2	30,1
2	Jami-dexqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	61,7	61,6	66,9	65,9	63,2
3	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	14,0	2,1	2,4	4,9	6,7
II	Dehqonchilikda					
1	Fermer xo'jaliklari	41,6	59,1	52,0	52,6	50,3
2	Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	37,1	39,4	46,2	41,1	40,9
3	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	21,3	1,5	1,8	6,3	8,8
III	Chorvachilikda					
1	Fermer xo'jaliklari	2,7	3,9	4,0	5,7	4,8
2	Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	92,6	93,1	92,9	90,7	91,4
3	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,7	3,0	3,1	3,6	3,8

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dehqonchilikda 2005 yilda fermer xo'jaliklari 24,3 foizlik ulushga ega bo'lgan bo'lsa, 2025 yilga kelib 50,3 foizni tashkil etgan. Dehqon xo'jaliklari mos ravishda 37,1 foizdan 2025 yilda 40,9 foiz, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar 2005 yilda 21,3 foizdan 2025 yilga kelib 8,8 foizlik ulushga ega bo'lganligini ko'rish mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga ega. Bunda shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining hissasi borligini e'tirof etish mumkin. Ayniqsa, dehqon xo'jaligining chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hissasi 91,4 foizni tashkil etishi aholini go'sht va sutga bo'lgan ehtiyojini qondirilishida munosib o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi. Ammo fermer xo'jaliklarining yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi tobora ortib bormoqda. Bu esa ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

tizimining samaradorlogini oshirish bilan bevosita bog'liq.

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini kompleks baholashga qaratilgan integral samaradorlik indeksi ishlab chiqildi.

Mazkur indeks fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ifodalovchi 4 ta asosiy ko'rsatkich:

- kredit resurslaridan foydalanish darajasi;
- davlat subsidiyalari bilan qamrov darajasi;
- moliyaviy barqarorlik koeffitsienti;
- investitsiya faolligi darajasi asosida shakllantirildi.

Ko'rsatkichlarning ta'sir darajasini inobatga olgan holda ularga mos ravishda 0,25; 0,30; 0,20; 0,25 og'irlik koeffitsientlari belgilandi hamda indeks quyidagi formula asosida hisoblanishi asoslab berildi:

$$IS = 0,25K + 0,30S + 0,20B + 0,25I \quad (1)$$

bu yerda: IS – fermer xo'jaligining moliyaviy qo'llab-quvvatlanish integral samaradorlik indeksi; K – kreditdan foydalanish darajasi; S – subsidiya hajmi; B – moliyaviy barqarorlik koeffitsienti; I – investitsiya faolligi ko'rsatkichi.

Taklif etilgan indeks asosida fermer xo'jaliklarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasini 0 dan 1 gacha intervalda baholash imkoni yaratildi, bu esa ularni moliyalashtirish darajasi bo'yicha guruhlash, taqqoslash va samarali qo'llab-quvvatlash choralarini ishlab chiqishga xizmat qiladi [3].

Ushbu metadaologiya amaliyotda paxta va g'alla yo'nalishidagi fermerlarning reytingi asosida imtiyozli kredit foizlarini differensiallash (paxta – 8 %, g'alla – 10 %) masalasi bo'yicha ilmiy asoslangan loyihani amalga oshirish imkonini beradi. Taklif mazmuni shundaki, paxta va g'alla yo'nalishidagi uzoq yillardan buyon barqaror faoliyat yuritayotgan va kredit, soliq, lizing bo'yicha qarzdorligi bo'lmagan yuqori reytingli fermer xo'jaliklari uchun Qishloq xo'jaligi jamg'armasi imtiyozli kreditlarining foiz stavkasini pasaytirish (paxta — 8 %, g'alla — 10 %) orqali ularning samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan.

Paxta va g'alla O'zbekiston qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining asosiy strategik tarmog'idir. Fermer xo'jaliklarining aksariyati 10 yildan ortiq faoliyat yuritib, ishlab chiqarishda barqaror natijaga erishgan bo'lsa ham, ularga beriladigan kredit foizlari umumiy tartibda saqlanib qolgan.

Bu esa investitsiya xarajatlarining yuqoriligiga, rentabellikning sekin tiklanishiga, kredit yuklamasining oshishiga, tarmoqning moliyaviy barqarorligiga xavf tug'diradi.

Shu sababli reytingga asoslangan differensial kredit siyosati iqtisodiy zaruratga aylandi.

Ushbu taklifning dolzarbligi shundaki, paxta va g'alla O'zbekiston qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining asosiy strategik tarmog'idir. Fermer xo'jaliklarining aksariyati 10 yildan ortiq faoliyat yuritib, ishlab chiqarishda barqaror natijaga erishgan bo'lsa ham, ularga beriladigan kredit foizlari umumiy tartibda saqlanib qolgan[4]. Bu esa investitsiya xarajatlarining yuqoriligiga, rentabellikning sekin tiklanishiga, kredit yuklamasining oshishiga, tarmoqning moliyaviy barqarorligiga xavf tug'diradi. Shu sababli reytingga asoslangan differensial kredit siyosati iqtisodiy zaruratga aylandi.

Nazariy tomondan baholanganda risk asosida differensiallash tamoyili yuqori reytingli, barqaror fermer xo'jaliklari bo'yicha to'lovga layoqatlilik yuqori, kredit riski past, shuning uchun foiz stavkasini kamaytirish iqtisodiy jihatdan asosli hisoblanadi. Shu bilan birga agrar kreditlashning "rentabellik sikli" modeli paxta va g'alla yetishtirishda 9–10 oy muddatni qamrab oladi, ammo rentabellik 1 yilda shakllanadi. Demak, foiz yuklamasini rizk guruhiga qarab optimallashtirish talab etiladi.

Reytinglar asosida moliyalashtirish nazariyasida kredit stavkalari subyektning mezonlari, yani, moliyaviy intizomi, ishlab chiqarish samaradorligi, uzoq muddatli faoliyat tarixi asosida belgilanganda kredit qaytimi sezilarli oshadi.

Hozirda paxta va g'alla uchun kredit foizi tarmoqqa ham, fermer reytingiga ham qarab differensialanmaydi. Ushbu jarayonni bir nechta mezonlar asosida baholash quyidagi natijani ko'rsatmoqda.

2-jadval

Amaldagi kreditlash mexanizmidagi mezonlarning solishtirma tahlili²

Ko'rsatkich	Yuqori reytingli fermer	O'rtacha reytingli	Past reytingli
Kredit riski	Past	O'rta	Yuqori
To'lov intizomi	Juda barqaror	O'rta	Past
Foiz stavkasi	Bir xil	Bir xil	Bir xil

2-jadval malumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, Bu tizim adolatli kreditlash tamoyiliga zid va samarasiz. Shuning uchun reyting asosida foiz stavkalarini belgilash mexanizmi quyidagi

3-jadval asosida joriy etish taklif qilindi:

3- jadval
Paxta va g'alla yo'nalishi bo'yicha
belgilangan foiz stavkalari³

Yo'nalish	Foiz stavkasi
Paxta yo'nalishi bo'yicha	Yuqori reytingli fermerlarga foiz stavkasi - 8 %
G'alla yo'nalishi bo'yicha	Yuqori reytingli fermerlarga foiz stavkasi - 10 %

Jadvalda aks etgan ma'lumotlar asosida fermer xo'jaligining reyting ballari asosida belgilash maqsadga muvofiq. Bu foizlar kreditning umumiy risk darajasiga mos holda taklif etilgan.

4-jadval
Loyiha uchun fermer xo'jaliklari reytingi mezonlari⁴

Tr	Reyting mezonlari:	max. ball
1	Fermer xo'jaligining 10 yildan ortiq faoliyat yuritishi	20 ball
2	Soliq, lizing va kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning yo'qligi	25 ball
3	Shartnoma asosida yetkazib berish intizomi	20 ball
4	Yer resurslaridan samarali foydalanish (hosildorlik ko'rsatkichlari)	20 ball
5	Mehnat resurslarini barqaror band qilganlik	15 ball

Jadval ma'lumotlari asosida aniqlangan va fermer xo'jaligi tomonidan yig'ilgan ballar asosida past, o'rta va yuqori mezonlarga ajratildi:

1. Past reyting: 65 balldan past
2. O'rta reyting: 65–84 ball
3. Yuqori reyting: 85 ball va yuqori

Ushbu taklif faqat yuqori reytingli fermerlarga qo'llanadi va ajratiladigan kredit foizi ball asosida beriladi. Metodikani ixchamlashtirish va aniqlashtirish uchun foiz stavkasini belgilashda ilmiy asoslangan formula orqali aniqlash mumkin:

Taklif etilayotgan model:

$$F = R \times (1 - Kf)$$

(2)

bu yerda: F – yakuniy foiz stavkasi; R – bazaviy foiz stavkasi (jamg'armaning amaldagi foizi); Kf – fermerning reyting koeffitsiyenti (0,15–0,30 diapazon)

Yuqori reytingli fermerlarda koeffitsiyent yuqori bo'lgani uchun foiz stavkasi sezilarli kamayadi[4]. Taklifning iqtisodiy samaradorligi fermer xo'jaliklari uchun quyidagi natijalarni shakllantiradi:

Foiz xarajatlari 18–25 % gacha kamayadi;

Moliyaviy barqarorlik ortadi;

Yillik sof foyda paxtada 8–12 %, g'allada 6–10 % oshadi;

Uzoq muddatli barqarorlik kafolatlanadi;

Hozirgi vaqtda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda Fermer va dehqon xo'jaliklarini davlat tomonidan ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga muhtoj soha hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, XXI - asr boshiga kelib qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash xarajatlari 300 mlrd dollarni tashkil etmoqda. Bu sohaga qanchalik katta mablag' sarflanmasin, qishloq xo'jaligi mahsulotlari oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal etishga o'zligicha qolmoqda [2]. Hozirgi vaktida dunyo aholisining 3/1 qismi to'yib ovqatlanmaydi. Shunday ekan oziq – ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'lamini oshirishda fermer va dehqon xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va erlardan olinadigan hosildorlik miqdorini oshirish uchun sarflanadigan mablag'lardan samarali foydalanish dolzarblik kasb etadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning qishloq xo'jaligiga sarflanadigan xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1,68 foizni tashkil etadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) kirmaydigan davlatlarda esa 0,62 foiz, o'rtacha darajadagi daromadli davlatlarga nisbatan qariyb uch baravar va IHTTga a'zo mamlakatlarga (0,17) nisbatan o'n baravar ko'pdir [1].

Xulosa. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda subsidiya amaliyoti tarmoq barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ammo mavjud tizimni takomillashtirish uchun institutsional islohotlar, raqamlashtirilgan boshqaruv, monitoring va audit tizimlarini kuchaytirish talab etiladi. Xalqaro tajribaga tayanilgan holda ishlab chiqilgan takliflar amaliyotga joriy etilsa, subsidiyalar real iqtisodiy samaradorlikka, fermer xo'jaliklarining raqobatbardoshligiga hamda qishloq xo'jaligi eksportining o'sishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida fermer xo'jaliklarini subsidiya orqali moliyalashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Birinchi yo'nalish sifatida raqamlashtirishni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda "bir darcha" tamoyiliga asoslangan elektron subsidiya platformasini joriy etish, arizalarni elektron verifikatsiya

asosida ko'rib chiqish hamda jarayonlarni to'liq raqamli muhitga o'tkazish byurokratik to'siqlarni kamaytiradi va shaffoflik darajasini oshiradi.

Ikkinchi yo'nalish sifatida subsidiya ajratish samaradorligini baholash uchun aniq mezonlar tizimini ishlab chiqish zarur. Bunda hosildorlikning o'sishi, suv va resurslardan tejamkor foydalanish, modernizatsiya qilingan texnika ulushi, ekologik standartlarga rioya qilish hamda eksportbop mahsulotlar ulushi kabi indikatorlar asosiy baholash mezonlari sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi yo'nalish monitoring tizimini kuchaytirish bilan bog'liq bo'lib, subsidiya ajratilgan har bir loyiha GIS texnologiyalari asosida muntazam kuzatib borilishi lozim. Shuningdek, mustaqil audit tashkilotlarini jalb etish orqali moliyaviy va natijaviy nazoratning obyektivligi ta'minlanadi.

To'rtinchi yo'nalishda kooperatsiya mexanizmini kengaytirish masalasi ilgari suriladi. Kooperativ asosidagi subsidiya modeli resurslardan samarali foydalanishga, xizmatlar sifatini oshirishga hamda kichik fermer xo'jaliklarining bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Beshinchi yo'nalish sifatida "yashil subsidiya" tizimini joriy etish taklif etiladi. Ushbu yondashuv organik dehqonchilikni rivojlantirish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, xalqaro ekologik standartlarga mos barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

Umuman olganda, mamlakat agrar sektorida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, subsidiyalarning manzilliligi va tezkorligini oshirish, jarayonlarni to'liq raqamlashtirish hamda fermerlar uchun qulay institutsional muhit yaratish sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5853-son farmoni. 2019 yil 23 oktyabr.
2. Jahon banki ma'lumotlari <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/>
3. Nurmatov N.J., Avliyakulov A.A. " Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" darslik . "Fan ziyosi",

Toshkent. 2021.31-32 b.

4. Xakimov Z.I. Xorijiy davlatlarda tomorqa yer egalari xarajatlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari va tamoyillari/Moliya tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari: Xalqaro ilmiy amaliy anjuman. T., 2022. 26-30 b.